

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARI TOMONIDAN HOKIM FAOLIYATINI NAZORAT QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMI

Parxatov Mardonbek Davronbekovich

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o`qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'zining davlat organlari va huquq tizimini qayta shakllantirish huquqiga to'la maqomda ega bo'ldi. Mustaqil O'zbekiston davlat organlarining vazifalarini belgilash, ularni mustaqil asosda bajarish va shu yo'l bilan o'z faoliyatini yaxshilash uchun jiddiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Buning uchun esa, avvalo, o'zbek milliy davlatchilik an`analariga murojat qilinib, mahalliy ijroiya hokimiyatining boshlig'i sifatida hokim lavozimini ta'sis etish maqsadga muvofiq deb topildi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashi davlat hokimiyatining vakillik organi hisoblanadi. U viloyat, tuman va shaharlarda tashkil etiladi. Viloyat, tuman va shaharlarda shu hududlarning oliv mansabdor shaxsi – hokim vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Hokimlarning vakillik organlariga rahbarligi vakillik organlarining ishini tashkil qilishga qaratilgan. Mazkur maqolada mahalliy vakillik organlari, ularning vakolatlari, ahamiyati, tashkiliy shakli, faoliyat tamoyillari, shuningdek, ular tomonidan hokim faoliyatini nazorat qilishning mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish masalalari haqida so'z yuritiladi. Bu ishda kuzatish metodidan foydalanildi. Ushbu maqolada ilgari surilgan takliflarni qonun ijodkorligi jarayonida, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyatini faoliyatida qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: mahalliy boshqaruv, mahalliy davlat hokimiysi, vakillik organlari, hokim, xalq deputatlar kengashi, nazorat qilish

Annotation: After gaining its independence, the Republic of Uzbekistan has the full right to reorganize its state bodies and the legal system. Serious measures have been taken to define the tasks of the independent state bodies of Uzbekistan, to carry them out on an independent basis and thus to improve their activities. To do this, first of all, referring to the traditions of the Uzbek national statehood, it was decided to establish the post of governor as the head of the local executive power. The local Council of People's Deputies is a representative body of state power. It is organized in provinces, districts and cities. In the provinces, districts and cities, the highest official of these areas - the governor - heads the representative and executive authorities. The guidance of governors to representative bodies is aimed at organizing the work of representative bodies. This article discusses the local representative bodies, their powers, importance, organizational form, principles of operation, as well as the legal mechanisms of their control over the activities of the governor in our



country and the issues of their improvement. The observation method was used in this study. The suggestions made in this article can be used in the legislative process, as well as in the activities of local government.

Keywords: local government, local government, representative bodies, governor, council of people's deputies, control

Аннотация: После обретения независимости Республика Узбекистан имеет полное право восстановить свои государственные органы и права. Приняты серьезные меры по совершенствованию выполнения функций независимых государственных органов Узбекистана, их закреплению на самостоятельной основе и тем самым росту. С этой целью было установлено, что обеспечить управление исполнительной властью можно, обратившись к традициям узбекской национальной государственности. Полномочия органов государственной власти Совета народных депутатов. Он организован в провинциях, районах и городах. В губерниях, уездах и городах высшим должностным лицом этого управления является губернатор, возглавляющий представительную и исполнительную власти. Управление представительными органами губернаторов Корректировка работы представительных органов. В этой сфере идет обсуждение представительных органов, статьи права, значение, организационная форма, имеющиеся дела, правовые механизмы содействия контролю государства в их управлении и вопросы их обеспечения. В данном исследовании использовался метод времени. Предложения, выдвинутые в трех статьях, могут быть использованы в законотворческом процессе, в деятельности органов государственной власти.

Ключевые слова: местное самоуправление, местное самоуправление, представительные органы, губернатор, совет народных депутатов, контроль.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalar belgilangan. Eng muhim vazifalardan biri respublikamizda davlat hokimiyatining vakillik organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'isida»gi 1992-yil 4-yanvardagi Qonuni respublikada mahalliy hokimiyat organlarining yangi tizimi vujudga kelishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunda ko'rsatilishicha, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sharoitida ijroiya hokimiyatini mustahkamlash zarurligi munosabati bilan, O'zbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarida vakillik hokimiyatiga hamda ijroiya – boshqaruv hokimiyatiga boshchilik qiladigan hokimlar lavozimini ta'sis etish zarur deb topildi². Viloyatlarning hokimlari Respublika Prezidentining

² «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'isida»gi 1992-yil 4-yanvardagi Qonun.



joylardagi rasmiy vakillari hisoblanadi hamda tegishli viloyat xalq deputatlari Kengashlariga hisob beradilar. Ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tegishli viloyat kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlar va shaharlarning hokimlari esa tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo'ysungan shaharlarning hokimlarini tuman hokimi tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi hamda xalq deputatlari tuman kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining Konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlangan. Unda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi, tuzilish tartibi, ularning vakolatlari, faoliyatining shakllari, qabul iladigan huquqiy hujjatlari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy normalar ko'rsatilgan. Binobarin, Konstitutsiyamizning 99-moddasida shunday deyiladi: “*Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarini hal etadilar*”³. Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarda va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda esa davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil etilmaydi. Bu joylarda faqat ijroiya hokimiyati organlari – hokimlar bo'lishi nazarda tutiladi. Mahalliy vakillik organlari hamda ijroiya hokimiyat boshlig'iga hokim rahbarlik kiladi. 1993-yil 2-sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, mahalliy hokimiyat organlari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy normalarni aniqlashtirdi va ularni hayotda qo'llash uchun aniq huquqiy normalar bilan mustahkamladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasiga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oishirish.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T; 2003



Hokimlarning asosiy vazifasi esa Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa hujjatlari, Prezident va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlari ijrosini tashkil etishdir. Shuningdek, hokimlar jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko'radilar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulorra hollarda tegishli ishlarni tashkil etadilar. Agar quyi turuvchi hokimlarning qarorlari Konstitutsiya, qonunlar va boshqa yuqori tashkilotlar qarorlariga zid bo'lsa, ularni bekor qiladilar; rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati bo'limmalarining ishini nazorat qiladilar; xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajanganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida taqdimnoma kiritadilar; davlat mukofotlari bilan taqdimlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadilar va ular yuzasidan takliflar kiritadilar, respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko'radilar; aholini qabul qilishni tashkil etadilar, fuqarolarning taklif va shikoyatlarini ko'rib chiqadilar va o'z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni hal etadilar⁴. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining qarorlari Konstitutsiya va qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid bo'lmasligi kerak. Aks holda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. Hokimlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, shuningdek, davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Maxkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi. Bundan tashqari, hokim qabul qilgan normativ hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Mahalliy Kengashlarning o'z hududlari doirasida qabul qilgan qarorlari hokimiyat organining akti bo'lib, ijrosi majburiydir. Qarorlarni Kengash ochiq ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qabul qiladi. Qaror hokim va kotib tomonidan imzolanadi. Kengash majlislari borishini o'zida ifodalovchi asosiy hujjat sessiya bayonnomasi hisoblanadi. Unda sessiyaning o'tkazilgan vaqtiga, ishtirok etgan deputatlar va taklif etilgan shaxslarning soni, kun tartibi, ma'ruzachilar va qo'shimcha ma'ruzachilar, munozaralarda so'zga chiqqan shaxslar, ularning nutqlarining qisqacha mazmuni ko'rsatiladi. Sessiyada qabul qilingan Kengashning har qanday qarori bayonnomada o'z ifodasini topishi shart. Bayonnomaga hokim va

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida"gi Qonuni.



sessiya kotibi tomonidan imzolanadi. Bayonnomaning bir nusxasi yuqori turuvchi hokimiyatga beriladi.

Xalq deputatlari Kengashi va hokimning topshirig'iga binoan yoki o'z tashabbusi bilan vazifalari doirasidagi masalalar bo'yicha qaror loyihalarini ishlab chiqishda, mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini tegishli hududda amal qilishni ta'minlash maqsadida, xalq deputatlari Kengashi huzurida doimiy komissiyalar faoliyat yuritadi. Bunday doimiy komissiyalar mahalliy Kengashlar faoliyatining tashkiliy shakllardan biridir. Ularning faoliyati orqali Kengashning ishida doimiylik vujudga keladi. Bu doimiy komissiyani deputatlarning Kengash ishiga doimiy va faol jalb qilish vositasidir. Doimiy komissiyalarning soni tegishli Kengashlar tomonidan belgilanib, uning sohalaridan kelib chiqadi. Doimiy va muvaqqat komissiyalarning vazifalari: sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash, kengash qarorlarini va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o'rnatishdir. Komissiyalar to'g'risidagi nizom tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Viloyat, tuman va shahar Kengashlarida tashkil etilgan doimiy komissiyalar o'zlariga tegishli hududda korxona, tashkilot, muassasalarda qonun talablari qanday bajarilayotganligi to'g'risida o'tkazadigan tekshirishlarda hamkorlik qiladilar va o'z ish rejalarini muvofiqlashtiradilar hamda o'z faoliyatları va ish tajribalari bilan fikr almashib turadilar.

Mazkur normalardan kelib chiqib, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari bevosita hokim faoliyatini nazorat qilish, ayrim hollarda cheklab qo'yish mexanizmiga ega. Taassufki, ushbu normalarning ayrim jihatlari ijro qilinish mexanizmida jiddiy kamchiliklar mavjudligini ta'kidlash lozim. Hokim lavozimini egallagan shaxsning Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari faoliyatiga boshchilik qilishining belgilanishi ham bu kamchiliklarning ildizi vazifasini bajarmoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. |Mazkur jihatlarni e'tiborga olgan holda quyidagilarni taklif etamiz:

- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari raisi lavozimi ta'sis etilishi;
- mazkur lavozimni egallaydigan shaxs Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylangandan so'ng, dastlabki yig'ilishda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi;
- viloyat, tuman va shahar hokimlari ham xalq tomonidan bevosita saylab qo'yilishi;



□ hokim lavozimiga nomzodni Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarida eng ko'p deputatlik o'rmini egallagan siyosiy partiya yoxud teng miqdorda deputatlik o'rnini egallagan bir nechta siyosiy partiyalar tomonidan kiritilishi mahalliy davlat hokimiyati asoslarini demokratik izga solishda juda katta muvaffaqiyatli qadam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T; 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. T; 1996.
3. R. Qayumov.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. T; 1998
4. U. Tadjixanov, A. Saidov, X. Odilqoriev. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. T; 2001.
5. O'zbekiston Respublikasining *"Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'isida"*gi Qonuni. T; 1992y 4-yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasining *"Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida"*gi Qonuni T; 1993y 2-sentabr.

